


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi
hududiy xay‘at raisi

M.T. Xakimova 
« 03 » 2025 y.



« TASDIQLAYMAN »

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi
direktori

L.X. Musadjanova 
« 03 » 2025 y.



Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

**RUHIY-ASAB KASALLIKLAR VA NARKOLOGIYADA
HAMSHIRALIK ISHI**

(sikli bo‘yicha malaka oshirish guruhlariga uchun)

O‘QUV DASTURI

(144-kredit)

Toshkent-2025 yil

TUZUVCHILAR:

N.S. Ganieva Respublika o'rtta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

S.SH. Gafurova Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Nevrologiya va tibbiy psixologiya" kafedrasida assistenti

TAQRIZCHILAR:

N.F. Yadgarova Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Psixiatriya va narkologiya" kafedrasida dotsenti, PhD

Z.Z. Imamova Respublika o'rtta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

O'quv dasturi Respublika o'rtta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 4 » 2020²⁵ y.

bayonnoma № 2/1

Pedagogik kengashi raisi



L.X. Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 5 » 2020²⁵ y.

bayonnoma № 2

1. Kirish

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmasevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 martdagi “Psixiatriya yordami ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3606-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

O‘quv dasturi modul tizimi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, dasturda o‘quv fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e‘tiborga olingan. O‘quv dasturi “Ruhiy-asab kasalliklar va narkologiyada hamshiralik ishi” yo‘nalishining o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, o‘rta tibbiyot xodimlarini 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo‘ljallangan.

Dastur kasbiy rivojlanish va mutaxassislik fani modullaridan iborat bo‘lib, ta’lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma’naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma’lumotlar kiritilib, tibbiy ta’limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta‘minlagan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

Dasturda davolash profilaktika muassasalarining ruhiy kasalliklar va narkologiya dispanserlari bo‘limlari hamshiralarni malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo‘riqnomalariga muvofiq, lozim bo‘lgan yangi bilim va ko‘nikmalarni (bilishi mumkin, bilishi lozim, bajara olishi kerak va qaysi amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi lozim) yetarli darajada o‘zlashtirishga qaratilgan materiallar taqdim etilgan.

1.1. Maqsad:

O‘qish natijasi “Ruhiy-asab kasalliklar va narkologiyada hamshiralik ishi” yo‘nalishi bo‘yicha o‘rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarini takomillashtirish va kasbiy faoliyati uchun zarur yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va kasbiy darajasini oshirishga qaratilgan.

O'rta tibbiyot xodimlari (ruhiy kasalliklar va narkologiya bo'limlari, dispanserlari hamshiralari)ni har tomonlama yetuk, mutaxassisliklari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish, malakali tibbiy yordam ko'rsatish samaradorligini oshirish, yangi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

1.2. Vazifalar:

- Umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, dalillarga asoslangan tibbiyotga tayangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va tibbiy davolash muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashxislash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish.
- s
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- étika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- Aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o'rgatish;
- Hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko'nikmasini rivojlantirish;
- psixonevrologiya va narkologiya sohasidagi yangiliklar, ruhiy kasalliklar alomatlari va psixopatologik sindromlarni farqlashda hamshiralik jarayoni va parvarishi xususiyatlari, tafakkur va idrok etishning buzilishi, xotira buzilishlarida hamshiralik parvarishini amalga oshirish;
- ruhiy jarayonlar va ulardagi buzilishlarni aniqlay bilish, ruhiy kasalliklarni zamonaviy tekshirish usullari va ularga bemorlarni tayyorlashni amalga oshirish;
- giyohvandlik (narkologik kasalliklar) bilan kasallangan bemorlarda hamshiralik jarayoni va parvarish xususiyatlarini, markaziy asab tizimi kasalliklari bilan og'riq bemorlarda hamshiralik parvarishini olib borish;
- ruhiy, asab, giyohvandlik kasalliklari bilan og'riq bemorlarning oila a'zolariga yordam berish va tushuntirish ishlarini olib borish ko'nikmalarini yangilash;
- bo'limlardagi zamonaviy davolash va diagnostika usullari yordamida bemorlarni parvarishlash, salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash ko'nikmalarini shakllantirish;
- bemorlarni tibbiy ko'riklaridan o'tkazish, kuzatish, birinchi yordam ko'rsatish va salomatligini tiklash asoslarini o'rganish. Biriktirilgan aholi guruhlari orasida profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish, ko'p uchraydigan asosiy patologik holatlar va ularga olib keluvchi havf omillarini erta aniqlash mahoratini

oshirish;

- aholi salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlashda psixonevrologik va narkologik tibbiy yordamga muxtoj bemorlarni zamonaviy tekshirish usullariga tayyorlash, davolash va parvarishlash ko'nikmalarini o'rgatish;
- inson hayotiga havf soluvchi holatlarni kamaytirish, tibbiy yordam ko'rsatish chora tadbirlari, hozirgi kunda qo'llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to'g'risida ma'lumot berish;
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarini tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dasturi davolash profilaktika muassasalari ruhiy kasalliklar va narkologiya bo'limlarida faoliyat olib borayotgan hamshiralar malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan hamshiralar uchun mo'ljallangan.

O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, notiqlik san'atining asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
 - hamshiraning huquqiy me'yorlarini, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, bolalarning yoshiga nisbatan hususiyatlarini bilishi;
 - tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini amalga oshirish;
 - ruhiy va narkologik kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni qabul qilishdagi tibbiy hujjatlarni rasmiylashtira olishi;
 - psixopatologik sindromlar, ruhiy kasalliklar bilan og'rigan bemorlarga (shizofreniya, oligofreniya, epilepsiya) birinchi yordam ko'rsatish, ularni parvarish qilish, zamonaviy davolash chora tadbirlarini bajara olishi;
 - katta yoshdagi odamlarda uchraydigan ruhiy o'zgarishlarni bartaraf etish usullarini bilishi;
 - ruhiy bemorlarda uchraydigan tafakkur buzilishlari, idrok va tasavvurning buzilishi, illyuziyalar, gallyusinatsiyalar, psixomotor buzilishlar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishi;
 - ruhiy bemorlarni psixologik tekshirish usullari, diagnostika usullariga tayyorlash ko'nikmalarini amalga oshirishi;
 - ruhiy kasalliklarni oldini olish bo'yicha zamonaviy tendensiyalarni o'rganish, bemorlarga to'g'ri tavsiyalar berish, psixiatriyada uchraydigan tug'ma va ortirilgan kasalliklarni farqlay olishi;
 - markaziy asab tizimi kasalliklarida hamshiralik parvarishini tashkillashtirishi;
 - nevroz, nevrasteniya, isteriya bilan og'rigan bemorlarni parvarishlashning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi;
 - giyohvandlik bilan kasallangan bemorlarda hamshiralik parvarishi, alkohol psixozining asosiy shakllari, alkohol abstinent xolatida, alkogoldan o'tkir zaxarlanganda shoshilinch yordam ko'rsata olishi;
- bo'yicha chuqur va yangilangan to'liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan,

o

1.5. Dasturning dolzarbligi:

b

o

,

o

O'quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dagnostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralarini qo'llash, shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Sog'liqni saqlash tizimining butun dunyo bo'yicha rivojlanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, tibbiy kadrlarni tayyorlashda talablarni ishlab chiqishning vazifasi shakl va mazmunan bir xil ko'rinishda mutaxassislarni malaka oshirish tizimini yaratish, bunda tayyorlangan kadrlar sog'liqni saqlash muassasalarida to'liq mustaqil ishlay olishi va kasbiy faoliyat davomida malakasining oshirib borishi, bemorlarga ish joyi va egallagan lavozimiga mos bo'lgan kerakli malakaliy yordamni ko'rsata oladigan imkoniyatda bo'lishi lozim.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 kredit xaftada, 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda;
- online/offline, masofaviy/ an'anaviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda.

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: Mashg'ulotlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" № 160-son buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. Malaka oshirishdan so'ng: o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Ruhiiy-asab kasalliklar va narkologiyada hamshiralik ishi" bo'yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

TA'LIM NATIJALARI.

t

n m

o'z-o'zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to'g'ri qarorlarni qabul qilish, onabolalar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash doirasida, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarni olib borish, sog'lom turmush tarzi bo'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbir etish;

• hamkasblar, kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va ularning qarindoshlari bilan bo'lgan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirish;

• tibbiy xatolarga yo'l qo'yishning oldini olish maqsadida o'z faoliyati natijalarini har doim tahlil qilish va tahlil natijalarini amalga oshirish;

• bemorlarni parvarishlashda qo'llaniladigan yangi tibbiy asboblardan va texnik jihozlardan foydalanish;

• kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda turli manbalardan tibbiyotga oid ma'lumotlarni olish;

• kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining

i

k

r

l

a

imkoniyatlaridan foydalanish;

- to‘g‘ri ovqatlanishni targ‘ib qilish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish;
- aholi salomatligini mustahkamlash va sog‘lomlashtirishda ruhiy va narkologik kasalliklar profilaktikasini bilish;
- tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, hamkasblar, patsientlar va ularning yaqinlari bilan to‘g‘ri muloqot qilish;
- ruhiy va narkologik kasalliklar bilan og‘rigan bemor ahvolini baholash va hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko‘nikmalarini yangilaydi;
- aholi o‘rtasida, ruhiy kasalliklar shifoxonalari va narkologik dispanserlarda kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktik chora - tadbirlarni amalga oshirish qobiliyati yangilanadi;
- zamonaviy tibbiy jihozlarni ishlatish, texnik ishlov berish ko‘nikmalari takomillashadi;
- ruhiy jarayonlar va ulardagi buzilishlarni, asosiy psixopatologik sindromlar va ularni aniqlashni, ruhiy kasalliklarni zamonaviy tekshirish usullarini qo‘llay bilish;
- somatik kasalliklardagi ruhiy va hulq-atvor buzilishlarini, somatik, endokrin va yuqumli kasalliklar bilan bog‘liq ruhiy buzilishlarda kommunikativ ko‘nikmalarni, ruhiy statusni aniqlash va hamshiralik parvarishini amalga oshirish;
- affektiv buzilishlar, depressiyalar, bipolyar affektiv buzilishlarda ruhiy xolatni baholashni, suitsid xavfi bor bemorlar guruhini aniqlash va ularni olib borish;
- klinik sindromlar tahlilini o‘tkazish, bemorlarda ularning yoshi va jinsini hisobga olgan holda hamshiralik tashxisini qo‘yish, shifokor ko‘rsatmalariga binoan davolashni amalga oshirish, zamonaviy reabilitatsiya va profilaktika usullarini qo‘llash ko‘nikmalari yangilanadi;
- ruhiy va narkologik kasalliklarni rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ‘ibot tadbirlarni olib borish:
- bemor ehtiyojlarni baholash, tashxisga muvofiq yetarli davoni amalga oshirish, prognoz qilish va monitoring o‘tkazish qobiliyati yaxshilanadi;
- shifokorgacha shoshilinch holatlarni o‘z vaqtida aniqlash, birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, o‘rnatilgan tartibda hujjatlashtirish ko‘nikmalarini yangilaydi;
- kasallikni erta va yashirin turlarini, havf omillarini aniqlash uchun zamonaviy tashhisot usullarini qo‘llash, laborator va instrumental tekshiruvlarga bemorlarni tayyorlash, tekshiruv paytida shifokorga yordam berish, birlamchi va ikkilamchi profilaktik ishlarni amalga oshirish qobiliyati mukammallashadi;
- hamshiralik ishini amalga oshirish va tashkil etishning ilg‘or shakllari va usullarini ishlab chiqish, ommalashtirish, tajriba almashish hamda boshqa kasbiy faoliyat turlariga moslashtirish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

3. “Ruhiy-asab kasalliklar va narkologiyada hamshiralik ishi” malaka oshirish yo‘nalishi o‘quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot		
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	18	14		
1.1	Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati	4	4	-		
1.2	Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul. Infekcion nazorat.	6	4	2		
1.4	Modul: Shaxslar o'rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat	6	4	2		
1.5	Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
2.0	Mutaxassislik fanlar	104	44	60		
2.1	Modul: Psixiatriya va narkologiyaning asosiy nazariy va amaliy prinsiplari. Psixiatriya va narkologiyaning huquqiy asoslari.	6	4	2		
2.2	Modul: Ruhij jarayonlar va ulardagi buzilishlar, ruhiy kasalliklarni tekshirish usullari	18	6	12		
2.3	Modul: Asosiy psixopatologik sindromlar va ularni aniqlash.	6	2	4		
2.4	Modul: Tibbiyotda psixosomatika yo'nalishi. Somatik kasalliklardagi ruhiy va hulq-atvor buzilishlari.	6	2	4		
2.5	Modul: Shizofreniya sabablari, klinik turlari, hamshiralik parvarishi.	12	6	6		
2.6	Modul: Epilepsiya kasalligi, epileptiform sindromlar, kechishi va shoshilinch yordam.	12	4	8		
2.7	Modul: Aqli zaiflik va xromomsom kasalliklarda hamshiralik parvarishi.	12	6	6		
2.8	Modul: Bosh miya qon-tomir kasalliklari va bosh miya shikastlarida hamshiralik parvarishi.	6	4	2		
2.9	Modul: Narkologiyaning ijtimoiy yo'nalishlari	12	4	8		
2.10	Modul: Alkogolizm, asoratlari, hamshiralik parvarishi.	8	4	4		

2.11	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.	6	2	4		
3.0	Tanlov fanlar moduli	4			4	
	Attestatsiya	4				4
	Jami:	144	62	74	4	4

1.1.Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo'ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog'liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to'liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O'zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo'nalishlarning mazmun-mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining" Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi to'g'risi" dagi hamda "Tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida" gi qarorlarining ahamiyati. Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. "Aholi salomatligi-2030" milliy strategiyasining ustuvor yo'nalishlari, vazifalari va asosiy indikatorlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrdagi "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.

Davlat tibbiy sug'urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati. Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog'liq islohotlar. Davlat tibbiy sug'urtasining huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug'urtasiga oid norma haqida.

1.2.Modul: Tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari.

Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma'lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish.

Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. "Tibbiyotda raqamli texnologiyalar" o'quv modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

-tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;

- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;

- hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

1.3.Modul: Modul: Infekcion nazorat.

Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy olish chora tadbirlarini o'tkazishda o'rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar haqida tushuncha. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalaniish tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma'lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariya holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

1.4. Modul: Shaxslar o'rtasidagi muloqot va tibbiy maslahat

Jamiyat va bemorning salomatligi yo'lida halol mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko'rsatish. Bemorga diqqat e'tibor va g'amho'rlik bilan munosabatda bo'lish va o'zining barcha xatti-xarakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilish. Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati. Kasbning oliyanob an'analarini saqlash. Genderning salomatlikka ta'siri. Genderga sezgir tibbiy maslahat va aloqa to'g'risida tushuncha.

Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. Hamjihatlik va kollegiallik tuyg'ulariga rioya qilish.

1.5. Modul: Sog'lom turmush asoslari, to'g'ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik. Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

2.1. Modul: Psixiatriya va narkologiyaning asosiy nazariy va amaliy prinsiplari. Psixiatriya va narkologiyaning huquqiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasida ruhiy va asab kasalliklari fanlarining rivojlanishi. Psixologiya va psixiatriyaning nazariy va amaliy asoslari. Psixiatriya va narkologiyaning kultural yo'nalishlari, maqsad va vazifalari. Ruhiy salomatlik. Insonlarning ruhiy salomatligi omillari. Insonlarda uchraydigan asosiy ruhiy kasalliklar va ularda uchraydigan simptomlarning o'ziga xos xususiyatlari. Sog'lom turmush tarzi orqali ruhiy salomatlikni asrab qolish. Psixiatriya va narkologiyada hamshiralik ishini tashkil qilish, hamshiraning vazifalari. Psixopatologik sindromlar. Psixik kasalliklar bilan og'rikan bemorlarga (shizofreniya, oligofreniya, epilepsiya) birinchi yordam ko'rsatish, parvarish qilish, davo chora tadbirlari. Katta yoshdagi odamlarda uchraydigan ruhiy o'zgarishlarni bartaraf etish usullari, hamshiralik parvarishi, hamshira tashhisi, sohadagi yangiliklar bilan tanishish. Shaxslararo muloqot ko'nikmalarini o'zlashtirish, bemorlar bilan samarali muloqotni olib borish. Bemorlar bilan ishlashdagi professional etika, muloqot ko'nikmalari. Ruhiy kasalliklarni oldini olish bo'yicha zamonaviy talqinlar, bemorlarga to'g'ri tavsiyalar berish, katta yoshdagi insonlar hayot faoliyati, organizmidagi anatomofiziologik o'zgarishlar, bemor muammolarini aniqlash va ularni o'z vaqtida bartaraf etish choralari. Psixiatriya va

narkologiya faniga oid qonunlarni o'rganish, tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish. Ruhii kasalxonalarda, psixiatriya va narkologiya dispanserlari hamshirasining burch va majburiyatlari. Elektron va tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish.

2.2.Modul: Ruhii jarayonlar va ulardagi buzilishlar, ruhiy kasalliklarni tekshirish usullari.

Ruhiy sferalardagi buzilishlar, ularni aniqlash va farqlash. Idrok etishning buzilish turlari: gallyusinatsiyalar, illyuziyalar, psixosensor buzilishlar. Affektiv, verbal va pareydolik illyuziyalar, gallyusinatsiyalar (sharxlovchi, xid, ta'm bilish, taktil, visseral, soxta) to'g'risida zamonaviy talqinlar. Idrok va tasavvurning buzilishi. Sodda va murakkab idrok, idrokning o'ziga xos sifatlari. Idrokning tezligi, to'laligi, ravshanligi, aniqligi va tug'riligi. Turli ruhiy kasalliklarda ana shu sifatlarning u yoki bu darajada o'zgarganligini aniqlash. Xissiyot, harakat, iroda va mayl buzilishlari, ularda hamshiraning parvarishi. Yuqori va tub hissiyotlar, ijobiy va salbiy hissiyotlar. Ruhii bemorlarda iroda faoliyatining kuchayishi va sustlashishi. Ruhii kasalliklarda uchraydigan tafakkur buzilishlari. Ruhii bemorlarni psixologik tekshirish usullari. Xotira buzilishlari: xotiraning pasayishi va xotiraning kuchayishida bemorlarga hamshira parvarishi. Amneziyalar: retrograd va anterograd amneziyalar. Tafakkur buzilishi turlari: demensiya va oligofreniyaning darajalarini aniqlash. Ruhii kasalliklarda uchraydigan tafakkur, idrok, xotira buzilishlari darajasini va xavfliligini aniqlab, hamshira tashhisini qo'yish va parvarishni amalga oshirish.

2.3.Modul: Asosiy psixopatologik sindromlar va ularni aniqlash.

Psixiatriyada uchraydigan asosiy kasalliklar va ularni farqlash. Tug'ma va orttirilgan kasalliklarni farqlash. Ruhii kasalliklarni oldini olishda hamshira ko'magi. Asosiy ruhiy kasalliklar shizofreniya, epilepsiya va oligofreniyadagi simptomlarni farqlash, bemorlarga birinchi yordam ko'rsatish, huruj vaqtida parvarish qilish, davo chora tadbirlarini o'rganish.

Shaxs va moslashuv buzilishlari. Psixopatiyalar. Psixogeniyalar. Nevrozlar va nevrosteniya, isteriya, miyadan ketmaydigan holatlarni aniqlash. Shaxslararo munosabat buzilishlari. Psixopatiyalar va psixogeniyalarda kommunikativ ko'nikmalar. Stress bilan bog'liq nevrotik va somatoform buzilishlarni aniqlash va parvarish ko'nikmalarini amalga oshirish.

Bemorlarning psixologik holatini baholash, ruhiyati buzilgan bemorlar bilan verbal va noverbal muloqot qilish. Havotirni aniqlash, stress holatlarida yordam berish, bemorlar bilan suhbatlashib, psixoterapevtik tadbirlarni o'tkazish. Ruhii kasalliklarni oldini olish bo'yicha zamonaviy talqinlarni o'rganish, bemorlarga to'g'ri tavsiyalar berish. Ruhii bemorlarni psixologik tekshirish usullari. Aholi orasida dispanserizatsiyani tashkillashtirish. Ruhii bemorlarni davolashda hamshira deontologiyasi.

2.4. Modul: Tibbiyotda psixosomatika yo'nalishi. Somatik kasalliklardagi ruhiy va hulq-atvor buzilishlari.

Tibbiyotda psixosomatika yo'nalishi. Somatik, endokrin va yuqumli kasalliklardagi ruhiy va hulq-atvor buzilishlari. Somatik, endokrin va yuqumli kasalliklar bilan bog'liq ruhiy buzilishlarda kommunikativ ko'nikmalar, ruhiy statusni aniqlash, hamshiralik parvarishi ko'nikmalari. Tug'ruqdan keyingi psixozlarni aniqlash va ularda hamshiralik parvarishini amalga oshirish tamoyillari. Depressiyalar, xavotirlanish,

vahima, tajanglik, eyforiya bilan o'tadigan nevrosimon kasalliklar. Somatik, endokrin va yuqumli kasalliklarda xavotir va stress darajasini baholash. Yuqumli kasalliklar va zaharlanishlarda es hushining turli darajada buzilishi: karaxtlik, amensiya, deliriy, stupor, sopor holatlarini aniqlash va hamshiralik yordamini amalga oshirish. Somatik, endokrin va yuqumli kasalliklarda ruhiy va hulq-atvor buzilishlari aniqlash, psixologik testlarni o'tkazish. Affektiv buzilishlar. Bipolyar affektiv buzilishlarda ruhiy xolatni baholash. Suitsid xavfi bor bemorlar guruhini aniqlash va ularda ish olib borish. Katta yoshdagi odamlarda uchraydigan ruhiy o'zgarishlarni bartaraf etish usullarini o'rganish, sohadagi yangiliklar bilan tanishish.

2.5.Modul Shizofreniya sabablari, klinik turlari, hamshiralik parvarishi.

Shizofreniya kasalligi, kelib chiqish sabablari, kechishi, davolash va parvarish qilish xususiyatlari. Shizofreniya bilan og'rikan bemorlarda shaxs buzilishlari. Shizofreniyaning rivojlanish bosqichlaridagi klinik turlari: oddiy, gebefrenik, katatonik shizofreniyalar. Shizofreniya kasalligi bilan og'rikan bemorlarda ijtimoiy moslashuvda hamshira ko'magi. Shizofreniya kasalligini asosiy belgilari va kechishi, turlarini farklash. Uzluksiz shizofreniya, paranoid, sust kechadigan shizofreniya hurujlarini kechishi, ularda hamshiralik parvarishi. Shizofreniya bilan og'rikan bemorlarni muammolarini aniqlab, hamshira tashhisini qo'yish, reja tuzish va uni amalga oshirish.

Bemorlar bilan shaxslararo muloqot ko'nikmalarini qo'llagan xolda muloqot qilish. Shizofreniya kasalligi bilan og'rikan bemorlarni zamonaviy tashxisot va davolash usullari va hamshira parvarishi.

Katta yoshdagi odamlarda uchraydigan ruhiy o'zgarishlarni bartaraf etish usullarini o'rganish, sohadagi yangiliklar bilan tanishish. Shaxslararo muloqot ko'nikmalarini o'zlashtirish, bemorlar bilan muloqotda nimalarga e'tibor berish kerakligini, ruhiy kasalliklarni oldini olish bo'yicha zamonaviy talqinlarni, bemorlarga to'g'ri tavsiyalar berish, katta yoshdagi insonlar hayot faoliyati, ular organizmidagi anatomofiziologik o'zgarishlarni, ular muammolarini aniqlash va ularni o'z vaqtida bartaraf etish choralarini o'rgatish.

2.6.Modul: Epilepsiya kasalligi, epileptiform sindromlar, kechishi va shoshilinch yordam.

Psixik kasalliklar bilan og'rikan bemorlarni hamshiralik jarayoni va parvarishi. Epilepsiya kasalligining kelib chiqish sabablari, tarqalishi, zamonaviy tasnifini tahlil qilish. Epilepsiya kasalligining asosiy belgilari, hurujdan oldingi aura turlari, tutqanoq davrlari uning kechishi, epileptik status, katta va kichik talvasalarni kechishi. Epilepsiya talvasalarni farqlashdagi zamonaviy tashxisot usullari. Epilepsiya kasalligidagi tutqanoqlarni farqlashda hamshira taktikasi. Epileptik xurujda hamshira yordami. Epilepsiya kasalligi bilan og'rikan bemorlarni davolash usullari va hamshira parvarishi. Kasallikning oldini olish choralarini. Katta yoshdagi odamlarda uchraydigan ruhiy o'zgarishlarni bartaraf etish usullarini o'rganish, hamshiralik parvarishi, hamshira tashhisi, sohadagi yangiliklar bilan tanishish. Shaxslararo muloqot ko'nikmalarini o'zlashtirish, bemorlar bilan muloqotda nimalarga e'tibor berish kerakligini, ruhiy kasalliklarni oldini olish bo'yicha zamonaviy talqinlarni, bemorlarga to'g'ri tavsiyalar berishni, ular muammolarini aniqlash va ularni o'z vaqtida bartaraf etish choralarini o'rgatish.

Ruhiy bemorlarni psixologik tekshirish usullari. Ruhiiy bemorlarni davolashda xamshira deontologiyasi.

2.7. Modul: Aqli zaiflik va xromomsom kasalliklarda hamshiralik parvarishi.

Aqli zaiflikning tug'ma va orttirilgan turlari, tasnifi. Aqli zaiflikning sabablari. Aqli zaiflikning kelib chiqishida endogen va ekzogen faktorlarning: embrio va fetopatiyalar, tug'ruq shikastlari, MNS kasalliklari va boshqalarning o'rni. Daun kasalligining sabablari, klinik manzarasi, bemorning tashqi ko'rinishi, aql zaiflik darajalarini aniqlash. Fenilketonuriya, galaktozemiya, toksoplazmoz natijasida kelib chiqqan oligofreniya, tug'ma zahmdagi oligofreniya. Gidrotsefaliya, endemik kretinizmda bemorlarni kuzatish va parvarishlash xususiyatlari. Aqliy zaiflik darajalari. Idiotiya, imbesillik va debillik darajalari va ularni farqlash. Xromosom kasalliklar. Klaynfelter, Shereshevskiy -Terner sindromlari, sabablari, kechishi, zamonaviy tashxisot usullari, bemorlarni parvarish qilish.

Oligofreniya kasalligi bilan og'rikan bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari. Oligofreniya kasalligi bor bemorlarning ijtimoiy moslashuvida hamshira ishtiroki. Katta yoshdagi odamlarda uchraydigan ruhiy o'zgarishlarni bartaraf etish usullari, hamshiralik parvarishi, hamshira tashhisi, sohadagi yangiliklar. Shaxslararo muloqot ko'nikmalarini bemorlar bilan muloqotda ahamiyati. Ruhiiy kasalliklarni oldini olish bo'yicha zamonaviy talqinlar. Bemorlarning oila a'zolariga to'g'ri amaliy tavsiyalar berish, bemor muammolarini aniqlash va ularni o'z vaqtida bartaraf etish choralari. Ruhiiy bemorlarni psixologik va genetik tekshirish usullari. Ruhiiy bemorlar bilan muloqatda, davolashda va parvarishida xamshira deontologiyasining ahamiyati.

2.8. Modul: Bosh miya qon-tomir kasalliklari va bosh miya shikastlarida hamshiralik parvarishi.

Bosh miya organik o'zgarishlari sabablari, asosiy belgilari. Nevroz va psixonevroz holatlarini baholash. Nevrozlarni yuzaga kelish omillari. Psixoasteniya va nevrosteniya kasalliklarini klinik namoyon bo'lishi, davolash usullari. Patogenetik jihatdan asoslangan davolash muolajalari. Nevroz bilan og'rikan bemorlarni parvarishlashning o'ziga xos xususiyatlari. Insonlar orasida bosh miya va qon tomir kasalliklarni oldini olish, aholi orasida ushbu kasalliklar to'g'risida targ'ibot ishlarini olib borish, ruhiy, psixonevrologik kasalliklarni tarqalishini oldini olish. Markaziy asab tizimi shikastlari. Bosh miya jarohatlarida ruxiy o'zgarishlar. Ong buzilishi turlari va ularni farqlash. Bosh miya jarohatlarida hamshira parvarishi. Markaziy asab tizimi shikastlanishlarida shaxs buzilishi simptomlari. Isteriya, uning tarqalishi. Isterik pandemiyalar. Isterik tutqanoq, es-hushning kirarli-chiqarli isterik xolati, falajlik, astaziya-abaziya, surdomutizm. Isteriya patomorfozi va uning zamonaviy ko'rinishlari. Isterik shaxsiyatni tavsiflovchi o'zigaxosxususiyatlar. Isterik tutqanoqda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Markaziy asab tizimi kasalliklari va shikastlanishida hamshiralik jarayoni va parvarishi. Markaziy asab tizimi shikastlarida davolash turlari. Psixoterapiya. Gipnoterapiya. Gipnozning mohiyati. Isterik shaxslar bilan o'zaro munosabatda bo'lishning o'ziga xos tomonlari.

2.9. Modul: Narkologiyaning ijtimoiy yo'nalishlari.

Narkomaniya, toksikomaniya, barbituromaniyalar, efiromaniyalar haqida ma'lumot. Trankvilizatorlar bilan zaharlanish. Giyohvandlik turlari. Geroi, opiy (afyun)li narkomaniyalar (morfinizm, kodeinizm). Narkomaniya va toksikomaniyada ruhiy va

hulq-atvor buzilishlari. Geroin giyoxvandligidagi abstinensiya belgilari. Geroin giyohvandlikni davolashni zamonaviy uslublari. Qon va siydikda giyohvand moddalarini aniqlashda zamonaviy usullar. Giyohvandlikda shaxs buzilishlarining ko'rinishlari. Geroinni ortiqcha dozada qabul qilishidan rivojlangan koma holatida birinchi yordam. Nashavandlik. Kokainizm. Amfetamin (fenamin) birikmalariga o'rganib qolishlik. Giyohvandlik (narkomaniya) bilan kasallangan bemorlarda hamshiralik jarayoni va parvarishi. Giyoxvandlikka uchragan bemorlarni reabilitatsiyasi. Toksikomaniyalar. Barbituromaniyalar. Efiromaniyalar. Trankvilizatorlar, antigistamin preparatlari (dimedrol) va boshqa dori vositalariga o'rganib qolishlik. Kashandalik. Narkomanlarni davolash to'g'risidagi qonunchilik mohiyatini ota-onalarga tushuntirish.

Ruhiy-asab va giyohvandlik kasalliklari bilan og'rigan bemorlarni oila a'zolariga hamshiralik yordamini ko'rsatish, oila a'zolari bilan kasallik to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish. Bemorlarga huruj vaqtida birinchi yordam ko'rsatishni o'rgatish, jamiyatdagi o'z o'rnini topishiga ko'maklashish. Ruhiiy, asab, giyohvandlik kasalliklari bilan og'rigan bemorlarni parvarish qilish, hamshiralik yordamini amalga oshirish.

2.10. Modul: Alkogolizm, asoratlari, hamshiralik parvarishi.

Alkogolizm. O'tkir va surunkali alkogolizm haqida ma'lumot. O'tkir alkogolli intoksikatsiya, alkogolizmning klinik darajalari. Yengil, o'rtacha, og'ir darajalarini bemor qonidagi alkogol foizlariga qarab baho berish. Eyforiya, alkogolli deliriy (oq alahlash), alkogol psixozlari, surunkali alkogol gallyusinatsiyasi, alkogol paranoidlarini aniqlash, bemorlarga yordam ko'rsatish. Alkogol psixozining asosiy shakllari, ularning ahvolini kuzatuv kundaligida qayd borish. Alkogoldan o'tkir zaxarlanganda yordam ko'rsatish. Og'ir alkogol mastlikda birinchi yordam ko'rsatish. Tibbiy xushyorlashtirish usullari. Alkogol abstinent xolatini tashxislash. Tibbiy xushyorxona va narkologiya dispanserining bo'limi va xonasi ishlari bilan tanishish. Xushyorxonalarda bemorlarni o'ziga keltirish, davolash usullari. Surunkali alkogolizmida bemorlarni davolash, hamshira yordamini rejalashtirish va amalga oshirish. Alkogolizmni aniqlashda indikatorli trubkalar bilan sinamalarni o'tkazish. Ruhiiy o'zgarishlar kuzatilayotgan bemorni parvarish qilish, ularni boshqa bemorlardan ajratish.

Alkogol abstinent holatini tashxislash. Abstinesiya xolatini bostirish usullari. Alkogoldan o'tkir zaharlanganda yordam ko'rsatish. Tibbiy xushyorxona va narkologiya dispanserining bo'limi va xonasi ishlarini tashkil qilish. Tibbiy xushyorlashtirish usullari. Ruhiiy o'zgarishlar kuzatilayotgan bemorni parvarish qilish, ularni boshqa bemorlardan ajratish. Ruhiiy bemorlarni parvarishlashga oid hujjatlarni yuritish. Ruhiiy bemorlarni atrofdagilar bilan muammolarini bartaraf etish usullari. Ruhiiy bemorlar oila a'zolari bilan tushuntirish ishlarini olib borish.

2.11. Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.

Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha. Favqulodda vaziyatlar, ularning sabablari, turlari. Tibbiy saralash va triaj asoslari. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari. Qon ketishni to'xtatish usullari. Yengil va og'ir kuyishlarda

tibbiy yordam ko'rsatish. Elektr jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar, uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish. Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma'lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko'rsatish. Shok holatlarida yordam ko'rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko'rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY- PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jixozlar ruyxati:

Modul buyicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari. Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan ppt ko'rinishli

ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran, videofilmlar. Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'quv xonasi mulyaj, fantom, jihozlar, tarqatma materiallar, mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar.

4.3. ADABIYOTLAR RO'YXATI:

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy xujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 martdagi "Psixiatriya yordami ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3606-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarori.
4. "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab -quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora- tadbirlari to'g'risida" gi Qarori PQ 40-63 18.12.2018 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 noyabr PF 4887-sonli "Aholining sog'lom ovqatlanishi va jismoniy faolligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me'yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i.
7. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining me'yoriy hujjatlari.

4.3.2. Tavsifiya etilgan adabiyotlar:

1. N.I. Xo'jaeva, A. Yu. Shoyusupova "Psixiatriya", Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, Toshkent 2011 y.
2. X.Q. Shodmonov X.Sh. Eshmurodov "Asab va ruhiy kasalliklar", "O'qituvchi" nashriyot matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2012 y.
3. M.M. Asadullaev S.N. Aslanova "Asab kasalliklari propedevtikasi", "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent 2008y.
4. Z.S. Yunusjonova S.A. Mirzaeva E.A. Bositxonova "Psixologik parvarish", "Davr" nashriyoti, Toshket-2013 y.
5. Sh. Shomansurov "Asab va ruhiy kasalliklar", Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, Toshkent 2001 y.
6. V.T.Bubnov N.V. Bubnova "Нервные и психические болезни", 2003 y
7. A.L.Vertkin "Нервные и психические болезни", 2005 y
8. G.V.Morozov V.A.Romasenko " Нервные и психические болезни", 2005 y
9. D.M. Sabirov A.Z. Gazizov "Birinchi tez tibbiy yordam" o'quv qo'llanma, Toshkent 2017 y.
10. V.Ye.Avakov O.V. Churilova A.M.Sharipov "Руководство по оказанию первой неотложной доврачебной помощи." 2010 g.

11. Yu.Allayorov Yu.Tojiboev “Favqulotda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.”2007 y. Toshkent.

4.3.3. Elektron ta’lim resurslari.

www.edu.uz

www.minzdrav.uz

<http://www.medpoisk.ru/>

<http://www.rusmedserv.com/>

www.medi.ru

www.medlinks.ru

www.medscape.com

www.medland.ru

www.med-lib.ru

www.ksmed.ru/pat/gynecology

www.medsan.ru

5.YaKUNIY ATTESTATSIYA

5.1.Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar, o‘tkazish shakli va baholash mezonlari.

Yakuniy attestatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyruq 3-ilovasidagi “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash to‘g‘risidagi Nizom” asosida o‘tkaziladi.